



DUNYO INDEKSLARI DATA-JURNALISTIKANING MUHIM MANBAI SIFATIDA

Rizayeva Dildora

*O'zJOKU, Raqamli media va internet jurnalistika kafedrasi katta o'qituvchisi.
diliorom5@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy jurnalistikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan data-jurnalistika va unda xalqaro indekslarning axborot manbai sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Axborot hajmining keskin ortishi sharoitida jurnalistik tahlil va vizualizatsiyaning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston OAV amaliyotida xalqaro reyting va indekslardan yetarlicha foydalanilmayotgani ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqola data-jurnalistikaning jamoatchilik fikrini shakllantirish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishdagi rolini yoritadi.

Kalit so'zlar: data-jurnalistika, xalqaro indekslar, reytinglar, axborot tahlili, vizualizatsiya, ommaviy axborot vositalari.

Ключевые слова: дата-журналистика, международные индексы, рейтинги, анализ данных, визуализация, средства массовой информации.

Аннотация. В статье анализируется дата-журналистика как одно из ключевых направлений современной журналистики и рассматривается роль международных индексов как источников аналитических данных. В условиях информационного перенасыщения особое внимание уделяется функциям анализа и визуализации данных в журналистской практике. Обосновывается недостаточная активность отечественных СМИ в интерпретации подобных данных. Подчеркивается значение дата-журналистики в формировании общественного мнения и повышении социальной ответственности СМИ.

Abstract. The article examines data journalism as a key trend in contemporary journalism and analyzes the role of international indices as an important source of analytical information. In the context of information overload, particular attention is paid to data analysis and visualization as essential journalistic functions. The paper also highlights the limited use of such data in national media practices. Data journalism is considered as an effective tool for shaping public opinion and enhancing media accountability.

Keywords: data journalism, international indices, rankings, data analysis, visualization, mass media.

Kirish. So'nggi o'n yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi OAV faoliyatida tub o'zgarishlarga olib keldi. Yangi raqamli platformalar, interaktiv ekranlar va axborot tarqatish kanallarining ko'payishi natijasida auditoriyaning media maydondagi ishtiroki faollashdi. Bu jarayon jurnalistikada transmediaviy strategiyalarning ustuvor ahamiyat kasb etishiga sabab bo'ldi. Jurnalistikada axborotni yig'ish, qayta ishlash va o'z auditoriyasiga yetkazib berish usullari bilangina farqlanagan yo'nalish mavjud bo'lib, bu ma'lumotlar





jurnalistikasi yoxud data jurnalistikadir. Uning atamasi ingliz tilidagi data journalism soʻzidan olingan [1]. Mazkur yoʻnalishning asosida maʼlumotlarni qayta ishlash, ularni vizuallashtirish va undan jurnalistik materialni yaratishda foydalanish tushiniladi. Axborotning demokratlashuvi va texnik imkoniyatlarning kengayishi anʼanaviy jurnalistika funksiyalarini qayta koʻrib chiqishni, yangilanishni taqozo etmoqda. Avval jurnalistlar faoliyatining koʻp vaqti axborotni topish va yetkazishga sarflangan boʻlsa, hozirgi kunda bu jarayon raqamlashgan sari axborot haddan ortiq koʻpayib ketdi. Shu bois endilikda jurnalistlar oldida maʼlumotni tanlashgina emas, balki tahlil qilish, vizuallashtirish va izohlash vazifasi turibdi.

Tahlil. Bugun vaqt shiddat bilan oʻtayotgan maʼlumot, axborot koʻp zamonda yashayapmiz. Maʼlumotlar jurnalistikasining yutugʻi ham shundaki, u juda katta hajmdagi axborotni bir zumda bizga vizual taqdim eta oladi. Shuning uchun ham u informatika, dizayn, statistika kabi sohalar bilan chambarchas bogʻliq. Aslida jurnalistikada ushbu yoʻnalish qachon paydo boʻlgan? Data jurnalistikaning oddiy jurnalistikadan farqi nimada? Anʼanaviy jurnalistika asosida ham maʼlumotlar jurnalistikasi singari fakt, manba va dalillar yotadi. Ammo bugun axborot va raqamlashtirilgan davrda maʼlumotlarni yozma tarzda uzatish oʻz samarasini bermay qoldi. Aynan shu ehtiyojlar zahirida OAVda oʻziga xos zamonaviy jurnalistikaning alohida yoʻnalishi data-jurnalistika vujudga keldi.

Professor Nargis Qosimovaning fikricha, "data jurnalistikaning tarixi 19 asrga borib taqaladi. Ilk bora maʼlumotlar jurnalistikasi sifatida eʼtirof etilgan birinchi material 1821 yili Britaniyaning "The Guardian" gazetasi tomonidan oʻtkazilgan tadqiqot natijalari edi. Unda Angliyaning turli xil hududlarida faoliyat yuritayotgan oliy taʼlim muassasalarida taʼlim berish narxлари, toʻlov orqali va bepul oʻqiyayotgan talabalar soni tahlil etilgandi" [1.1].

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, bugun zamonaviy jurnalistika axborotni ikki bosqichda yetkazib berishni taqazo qilmoqda. Yaʼni:

Birinchi bosqich – tahlilga qaratilgan. Yaʼni katta hajmdagi maʼlumotlarni infografika usulida tahrirlash, uni tizimlashtirish va feyk xabarlarda rostni yolgʻondan ajratish. Bu axborotga faktcheking qilinadi, qayta tahlil qilinadi va maʼlumotlar oqimi tizimlashtiriladi. Ikkinchi bosqich – tasavvur, bu orqali jurnalist auditoriya uchun eng muhim jihatlarni tushunarli va taʼsirchan shaklda taqdim etadi. Statistika maʼlumotlar jurnalistikasi ham, oʻz uslublarini namoyon qiladi va xulosalarini atrofga biriktiradi, tasdiqlaydi.

Data-jurnalistika uchun eng qimmatli manbalardan biri – xalqaro indekslar hisoblanadi. Indeks (lotincha "index" – koʻrsatkich; sarlavha) – biror narsaning nomi, baho koʻrsatkichi, roʻyxati" [2] maʼnosini anglatib, ushbu tushuncha ilk bora Rimning ritorik fani oʻqituvchisi Mark Fabiy Kvintilianning (taxminan – 35-96-yillar) asarlarida uchraydi.

Bugungi kunda indekslar mamlakatlarni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanish darajasi boʻyicha solishtirish imkonini beradi.

Butunjahon iqtisodiy forumi eksperti Stefan Mergentaler taʼkidlaganidek, xalqaro reyting va indekslar davlatning yakuniy maqsadi emas, balki davlat siyosatida qaysi yoʻnalishlar mukammallashtirilishi lozimligini koʻrsatib beruvchi





tahliliy vositadir [3]. Shu nuqtai nazardan, indekslar jurnalist uchun tayyor fakt emas, balki tahlil qilish va jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, xalqaro amaliyotda indekslar BMTning asosiy ehtiyojlar konsepsiyasi asosida shakllangan bo'lib, iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ijtimoiy rivojlanish va aholining hayot sifati mezonlarini ham qamrab olgan. Shulardan biri – The Quality of Life Index (Hayot sifati indeksi) hisoblanadi. Ushbu indeks aholining o'z hayotidan qoniqish darajasini obektiv statistik ko'rsatkichlar bilan solishtirgan holda baholaydi va quyidagi to'qqiz asosiy mezonni o'z ichiga oladi:

1. Sog'liqni saqlash darajasi
2. Oilaviy munosabatlar
3. Ijtimoiy hayot
4. Moddiy farovonlik
5. Xavfsizlik
6. Iqlim va geografik sharoit
7. Bandlik darajasi
8. Fuqarolarning haq-huquqlari
9. Gender tenglik

Mazkur indeks data-jurnalistikasi uchun turli mamlakatlarni taqqoslash, infografikalar yaratish va muammoli sohalarni ochib berish imkonini beradi. Qolaversa, mazkur Indekslarni ma'lumotlar jurnalistikasi orqali auditoriyaga taqdim etish tahlil qilingan mavzu yuzasidan jamoatchilik fikrini shakllantirishga turtki beradi. Chunki axborot olish imkoniyati ko'payayotgan hozirgi sharoitda, jurnalistlar ma'lumotlar jurnalistikasi bilan ishlashni bilishlari shart.

Xulosa. Xalqaro indekslar data-jurnalistika uchun tayyor, ishonchli va tizimlashtirilgan axborot manbai hisoblanadi. Ularni tahlil qilish orqali jurnalist nafaqat axborot tarqatadi, balki jamoatchilik fikrini shakllantiradi, ijtimoiy muammolarga e'tibor qaratadi va hukumat institutlarining javobgarligini oshirishga hissa qo'shadi. Shu bois, raqamli axborot muhitida faoliyat yuritayotgan har bir jurnalist data-jurnalistika usullarini, xalqaro indekslar bilan ishlash va ularni auditoriyaga tushunarli shaklda taqdim etish ko'nikmalarini egallashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Qosimova. Ma'lumotlar jurnalistikasi// <https://nargis.uz/?p=2070>
2. "O'zbek tilining izohli lug'ati" Uchinchi jild. – "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti – Toshkent. 2008, 3-bet
3. <https://kp.ua/economics/394170-v-ukrayne-nachaly-rabotu-eksperty-vsemyrnoho-ekonomycheskoho-foruma>

